

SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM TIZIMIDAGI ANKETA SO'ROVI NATIJALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20199161>

Mirvarisova L.T., Zufarov P.S., Fayziyeva N.N., Mirvorisova Z.Sh.

*Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
 Toshkent davlat tibbiyot universiteti*

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti baholariga ko'ra, shoshilinch tibbiy yordam past va o'rta daromadli mamlakatlarda o'limlarning 54 foizidan 90 foizigacha oldini olishi hamda hayot yillari bo'yicha 900 milliondan 2,5 milliardgacha ko'rsatkichni yaxshilashi mumkin. Shoshilinch tibbiy yordamning ta'siri xizmatning aholi barcha guruhlarida, hayot davomida uchraydigan turli o'tkir shikastlanishlar va kasalliklar bilan kurasha olish qobiliyati bilan belgilanadi [1].

1998 yildan boshlab O'zbekistonda shoshilinch tibbiy yordam (ShTY) sog'liqni saqlash tizimining ajralmas va tayanch qismi bo'lib, respublika, viloyat va tuman darajalaridagi aniq boshqaruv vertikaliga ega tizim sifatida namoyon bo'ldi. Fuqarolarga, shu jumladan joylarda, yuqori texnologik tibbiy xizmatlar ko'rsatib kelinmoqda. Respublikamizda tez tibbiy yordam markazi hamda uning 14 ta hududiy filiali tashkil etildi va tez tibbiy yordamning yagona vertikal boshqaruv tizimi joriy qilindi [2]. O'zbekiston Respublikasining shoshilinch tibbiy yordami yuqori darajada markazlashtirilgan xizmat bo'lib, uning faoliyati asosan aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etishning zamonaviy umumjahon tamoyillariga mos keladi. Shoshilinch tibbiy yordam xizmati boshqaruvining markazlashtirilishi faoliyatning tashkiliy sxemalarini takomillashtirish, kadrlar va moliyaviy ta'minotni yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun qulay sharoit yaratadi.

So'nggi 15-20 yil ichida ShTY tizimini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va qulayligini uzluksiz takomillashtirish maqsadida hanuz yechimini kutayotgan masalalar mavjud.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekiston Respublikasi shoshilinch tibbiy yordam xizmati holatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlarni o'rganish, eng muhim muammolarni aniqlash va shu asosda uni yanada rivojlantirishning ehtimoliy yo'llarini belgilashi.

Materiallar va usullar

Tadqiqot "ShTY xizmatlarini takomillashtirish" loyihasi doirasida o'tkazildi.

Tadqiqot dasturi 2 ta asosiy bosqichni amalga oshirishni o'z ichiga oldi:

1. O'zbekiston Respublikasida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatuvchi tibbiyot tashkilotlari rahbarlarining xizmat holati haqidagi fikrini o'rganish.

2. O'zbekiston Respublikasida tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimi holati haqida tez tibbiy yordam sayyor brigadalari xodimlarining fikrini o'rganish.

Tadqiqot vazifalarini bajarish uchun shoshilinch tibbiy yordam xizmati rahbarlari, xodimlari va bemorlari uchun tez tibbiy yordamning qulayligi va sifati, resurslari, texnologiyasi va natijalarini aks ettiruvchi anketa savollari ishlab chiqildi. Statistik va analitik usullar, shuningdek tashkiliy eksperiment usuli qo'llanildi.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlaridan 60 nafar shoshilinch tibbiy yordam muassasalari rahbarlari va 120 nafar tez tibbiy yordam sayyor brigadalari xodimlari ishtirok etdilar. Statistik va analitik usullar qo'llanildi. Ekspert baholash nazariyasining asosi bo'lgan reprezentativ o'lchovlar nazariyasiga ko'ra, sifat belgilarini baholash uchun tartibli o'lchov shkalasi ishlatildi, ya'ni har bir ko'rsatkich 5 ballik tizim bo'yicha (ball qanchalik yuqori bo'lsa, uning ta'siri shunchalik muhim deb baholangan) ikki xususiyat bo'yicha ekspert tarzda baholandi: 1-ShTY ishi ko'rsatkichining namoyon bo'lish darajasi bo'yicha;

2 - ShTY rahbarining mazkur ko'rsatkichning mavjud darajasidan qoniqishi bo'yicha.

Tadqiqot natijalari

Shoshilinch tibbiy yordam tibbiyot tashkilotlari rahbarlarining so'rovnoma anketalari tahlili, umuman olganda, xizmat ko'rsatkichlari darajasining uncha yuqori emasligini ko'rsatdi. Baholash uchun taklif etilgan ko'rsatkichlarning birortasi ham yuqori baho, ya'ni me'yoriy darajaga mos baho olmadi. Shuni ta'kidlash joizki, shoshilinch tibbiy yordamning resurs ta'minotini tavsiflovchi ko'rsatkichlar me'yoriy darajaga eng yaqin bo'ldi (4,5 balldan yuqori). Ko'rsatkichlarning 26,1 foizi qoniqarli baho (4 balldan yuqori) oldi. Xizmat rahbarlarining shoshilinch tibbiy yordam holatidan qoniqish darajasi past bo'lib, o'rtacha 3,79 ballni tashkil etdi.

Omilning namoyon bo'lish darajasi bo'yicha o'rtacha baho (1-parametr) va rahbarlarning qoniqish darajasi bo'yicha o'rtacha baho (2-parametr) o'rtasida kuchli to'g'ri korrelyatsion bog'liqlik aniqlandi: Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,9 ni tashkil etdi. Yiriklashtirilgan ko'rsatkichlar guruhlari batafsil tahlili umuman olganda sayyor brigadalar bilan ta'minlanganlik qoniqarli ekanini ko'rsatdi. Avtopark holati tez tibbiy yordam avtomobillarining umumiy soni, eng avvalo umumiy profildagilar bo'yicha hisobiy ko'rsatkichlarga mosligi jihatidan yomon emasligi bilan tavsiflandi (4 balldan yuqori). Rahbarlar ShTY brigadalarining

asbob-uskunalar, dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan yaxshi ta'minlanganini qayd etdilar. Bunda sayyor brigadalarning dori vositalari bilan ta'minlanganligi bo'yicha o'rtacha ball 4,62 ni tashkil etib, me'yoriy darajaga eng yaqin bo'ldi (4,5 balldan yuqori).

Kadrlar resurslari tez tibbiy yordam feldsherlari (o'rta tibbiyot xodimlari) bilan yuqori darajada komplektlanganlik (o'rtacha 4,7 ball), ularning kasbiy tayyorgarligi yuqoriligi (4,12 ball), o'rta tibbiyot xodimlari uchun muntazam malaka oshirishning qulayligi va sifati (4,25 ball) bilan tavsiflandi. Shuningdek, shoshilinch tibbiy yordam tibbiyot tashkilotlarida tibbiy yordam sifati xizmati (ichki nazorat xizmati) faoliyatining samaradorligi (4,16 ball) va boshqa nazorat qiluvchi organlar faoliyati samaradorligi (4,19 ball) qayd etildi. Rahbarlar sayyor brigadalar ishining tezkorligini ham yomon emas, ya'ni me'yoriy ko'rsatkichlarga mos (4,08 ball) deb baholadilar.

Ma'lumotlar tahlili ayrim muammoli masalalarni ham aniqladi (3,5 balldan past). Muammoli hududda – ShTY xizmatining informatlashtirish va avtomatlashtirish darajasi: sayyor brigadalarni boshqarish tizimlarini avtomatlashtirish darajasi (3,38 ball), navigatsiya tizimlari sifati (3,23), sutkalik masofaviy maslahat bo'limlari samaradorligi (3,16 ball). Moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar esa, masalan, trombolitik terapiya o'tkazish uchun shoshilinch tibbiy yordamning ixtisoslashgan tariflari mavjud emasligini ko'rsatdi (3,16 ball). Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatkichlari darajasi va rahbarlarning qoniqish darajasi taqqoslanganda aloqa vositalari bilan ta'minlanganlik va tez tibbiy yordam avtomobillarining texnik holati (foydalanish muddatini hisobga olgan holda) bo'yicha eng katta qoniqmaslik aniqlangan.

Tez tibbiy yordam sayyor brigadalari xodimlari fikrlarini o'rganish ham umuman olganda tez yordam ish ko'rsatkichlarining yuqori emasligini ko'rsatdi. Baholash uchun taklif etilgan ko'rsatkichlarning birortasi ham me'yoriy darajaga mos yuqori baho olmadi. Ko'rsatkichlarning 18,6 foizi qoniqarli baho (4 balldan yuqori) oldi. Sayyor brigada xodimlarining tez yordam holatidan qoniqish darajasi umuman past bo'lib, 3,83 ballni tashkil etdi. Omillarning namoyon bo'lish darajasi bo'yicha o'rtacha baho (1-parametr) va sayyor brigada xodimlarining qoniqish darajasi bo'yicha o'rtacha baho (2-parametr) o'rtasida kuchli to'g'ri korrelyatsion bog'liqlik aniqlanib, Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,9 ni tashkil etdi. Yiriklashtirilgan ko'rsatkichlar guruhlari tahlili umuman olganda sayyor brigadalar bilan ta'minlanganlik qoniqarli ekanini ko'rsatdi (xizmat ko'rsatilayotgan hudud aholisi soniga brigadalar umumiy sonining mosligi – 4,17 ball, jumladan feldsher brigadalari – 4,38 ball), shu bilan birga brigadalarga tushadigan o'rtacha sutkalik yuklama yuqori ekanligi qayd etildi (4,51 ball). Sayyor brigada xodimlari asbob-

uskunalar (4,18 ball), dori vositalari (4,58 ball) va tibbiy buyumlar (4,25 ball) bilan yaxshi ta'minlanganlikni qayd etdilar.

Kadrlar ta'minoti bo'yicha barcha ko'rsatkichlar, jumladan kadrlar bilan komplektlanganlik, kasbiy tayyorgarlik darajasi, vrach va o'rta tibbiyot xodimlari uchun muntazam malaka oshirishning qulayligi va sifati, tez yordam faoliyati bo'yicha me'yoriy-huquqiy axborotlarning xodimlar uchun mavjudligi, jamoa bilan metodik ishlarning yetarliligi va samaradorligi (ma'ruzalar o'qish, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish) 4 balldan yuqori baho oldi. Hududiy xususiyatlar orasida xizmat ko'rsatish hududida aholi zichligining yuqoriligi qayd etildi (4,12 ball). Tibbiy yordam sifati xizmati (ichki nazorat xizmati) faoliyatining samaradorligi (4,11 ball) va boshqa nazorat qiluvchi organlar samaradorligi (4,09 ball) ham ta'kidlandi.

Ishning psixoemotsional omillari orasida tez yordam vrachida "kasbiy kuyishning yaqqolligi (4,04 ball), jamoada va aholi bilan ishlashda etika (deontologiya) muammolari (4,10 ball) alohida ajralib turdi. Sayyor brigada xodimlari brigadalar ishining tezkorligini yomon emas, ya'ni me'yoriy ko'rsatkichlarga mos deb ko'rsatdilar (4,01 ball). Tahlil ayrim muammoli masalalarni ham aniqladi (3,5 balldan past): shoshilinch tibbiy yordam xizmatining informatlashtirish va avtomatlashtirish darajasi (3,45 ball), tez yordam avtomobillarining texnik holati (foydalanish muddatini inobatga olgan holda) (3,46 ball).

Olingan ma'lumotlar tahlili rahbarlar va sayyor brigada xodimlari baholari bir-biriga mos kelgan ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish imkonini berdi, bu esa ularning ahamiyati va ishonchliligini oshiradi. Qoniqarli baho (4 balldan yuqori) olingan quyidagi omillar shular jumlasidandir:

1. Sayyor brigadalar bilan qoniqarli ta'minlanganlik (xizmat ko'rsatilayotgan hudud aholisi soniga brigadalar umumiy soni, jumladan feldsher brigadalar mosligi) va shu bilan birga brigadaga tushadigan o'rtacha sutkalik yuklamaning yuqoriligi.

2. Tez yordam brigadalarining asbob-uskunalar, dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan qoniqarli ta'minlanganligi.

3. Kadrlar masalalarida – feldsherlar (o'rta tibbiyot xodimlari) bilan qoniqarli komplektlanganlik, vrachlar va o'rta tibbiyot xodimlari uchun muntazam malaka oshirishning qulayligi va sifati.

4. Tibbiy yordamning qulayligi va sifatini nazorat qiluvchi tashqi organlar (vazirlik, departament, qo'mita, bo'lim va boshqalar) faoliyatining samaradorligi.

5. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tezkorligining me'yoriy ko'rsatkichlarga mosligi.

Tahlil qilinayotgan ma'lumotlar rahbarlar tomonidan shoshilinch tibbiy yordam holatiga nisbatan ijobiyroq baho berilganini, bunda sayyor brigadalar ish sharoitlari – nomutaxassis yo'nalishdagi ish hajmining kattaligi va xizmat ko'rsatilayotgan hududda aholi zichligining yuqoriligi, shuningdek jamoa faoliyatining psixoemotsional omillari – “kasbiy kuyish” darajasining yuqoriligi, jamoa ichidagi va aholi bilan ishlashdagi etika (deontologiya) muammolari yetarli baholanmaganini ko'rsatadi.

Xulosalar

1. O'zbekiston Respublikasining shoshilinch va tez tibbiy yordam xizmati faoliyatining barcha jihatlarini tartibga soluvchi, qoidalari bajarilishi majburiy bo'lgan yagona huquqiy-me'yoriy hujjat yaratish maqsadga muvofiqdir.

2. Viloyatlar darajasida shoshilinch va tez tibbiy yordamni tashkil etishning oqilona 3 bosqichli tizimini ishlab chiqish va joriy etish zarur. Uning asosiy elementlari shoshilinch va tez tibbiy yordam ko'rsatuvchi tibbiyot tashkilotlarini funksional vazifalariga ko'ra 3 darajaga ajratish, shuningdek 2 va 3 darajadagi tibbiyot tashkilotlarida statsionar tez tibbiy yordam bo'limlarini shakllantirishdan iborat.

3. Tez tibbiy yordam sayyor brigadalarini tomonidan tibbiy evakuatsiyani optimallashtirish maqsadida har bir viloyat darajasidagi filialda shoshilinch bemorlarni marshrutlash bo'yicha buyruqlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir (qabul qiluvchi tibbiyot tashkilotining profili va imkoniyatlarini hisobga olgan holda).

4. Xizmat ishining tezkorligini oshirish, shoshilinch tibbiy yordamning statsionargacha bo'lgan bosqichi va statsionar bosqichi o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, xizmat faoliyati natijalari bo'yicha analitik ishlar samaradorligini oshirish maqsadida mamlakat uchun yagona shoshilinch tibbiy yordam axborot tizimini, shuningdek har bir viloyatda markazlashtirilgan dispetcherlik xizmatlarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

5. Viloyatlarni tez tibbiy yordam sayyor brigadalarini bilan tavsiya etilgan ko'rsatkichlargacha ta'minlash (biriktirilgan aholi sonidan kelib chiqib), tez yordam avtomobillarini zamonaviy bort jihozlari, to'plamlar va dori vositalari bilan ta'minlash, tez yordam avtomobillarini o'z vaqtida yangilab borish (kamida har besh yilda bir marta), tez tibbiy yordam sayyor brigadalarining kadrlar tarkibini optimallashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti byulleteni. 2019; 97: 612-619. DOI: <http://dx.doi.org/10.2471/BLT.18.226605>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 16.06.2022 dagi PQ-283-son "Aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi qarori.